

O'ZBEK TILIDA SO'Z YASALISHIGA DOIR TASAVVURLAR.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7618661>

M.I.Gadoeva

BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori(DSc),

Obloqulova Gulbahor Sobir qizi

BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrasida magistranti



ELSEVIER



Received: 07-02-2023

Accepted: 08-02-2023

Published: 22-02-2023

Abstract: Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z yasalishi hodisasi, u haqdagi turlicha qarashlar, o'quvchilarga so'z yasalishi mavzusini o'qitishda foydalaniladigan samarali usullari haqida bayon etilgan.

Keywords: so'zyasalishi, leksika, leksema, morfema, morfemika, onomosiologiya, nominatsiya, diaxron, sinxron

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 07-02-2023

Accepted: 08-02-2023

Published: 22-02-2023

Abstract: Эта статья на современном узбекском литературном языке феномен словообразования, разные взгляды на него, слово учащимся описаны эффективные методы, используемые при обучении предмету композиции.

Keywords: словообразование, лексика, лексема, морфема, морфемика, ономонология, номинация, диахрония, синхронность

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 07-02-2023

Accepted: 08-02-2023

Published: 22-02-2023

Abstract: This article is in modern Uzbek literary language the phenomenon of word formation, different views about it, a word to the students effective methods used in teaching the subject of composition are described

Keywords: word formation, lexicon, lexeme, morpheme, morphemics, onomosiology, nomination, diachronic, synchronous

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

KIRISH. Til leksikasi lug'aviy ma'nolarning o'zgarishi, so'z yasalishi va yangi so'zlar hosil qilinishi omillari hisobiga muntazam boyib boradi. Biri boshqasi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan bu omillar ayni o'rinda til taraqqiyotini belgilashga xizmat qiladi. Ularning o'zaro munosabatchiligi shundaki, tilda yangi paydo bo'lgan so'zlar so'z o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lsa, so'z o'zlashtirish lug'aviy birliklar ma'nosini farqlash (differentsiatsiya qilish)da muhim rol o'ynaydi. Lug'aviy birliklarning mazmuni paydo bo'layotgan yangi so'z (yoki tushuncha)ning ma'nosiga zid bo'lmagan holatlarda ma'nolar o'zgarishiga ehtiyoj(imkoniyat) vujudga keladi. So'z yasalish nazariyasining birinchi bosqich (XX asrning 40-50-yillari) doirasida so'z yasash jarayonlari morfologiyada qaralib, so'z tuzilishi doirasida morfologik tuzilishdan so'z yasalishi hamda morfem tuzulish izchil

farqlangan bo'lsa, ikkinchi bosqich (XX asrning 60-80-yillari) dorasida morfemika va so'z yasalihi til qurilishida alohida sath hamda shu sathni o'rganadigan mustaqil soha (bo'lim) sifatida e'tirof etildi. Bu sohalarning asosiy birliklari, mazmun-mundariyasi, boshqa sohalar bilan munosabati xususida ham muayyan bir umumiy fikr (to'xtam)ga erishildi.

O'zbek tilshunosligida so'z yasalihi mavzusi keng o'rganilgan. "So'z yasalihi" termini tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llanadi: bir tomondan, tilda yangi so'z hosil qilish jarayonining o'zini bildirsa, ikkinchi tomondan esa tilshunoslikning so'z yasalihi sistemasini o'rganuvchi bo'limni bildiradi. So'z yasalihi tilda mavjud bo'lgan so'z yasalihi tarkibini va so'z yasalihi usullarini o'rganadi. Bularni o'rganish hozirgi o'zbek adabiy tilidagi so'z yasalihi me'yorini belgilash, uning qonuniyatlarini to'g'ri tusunish imkoniyatini beradi.²² So'z yasalihi bo'limi tilshunoslikning morfemika bo'limi bilan chambarchas bog'langan. So'zning ma'noli qismlari o'zak va affiksial morfemalar tilda yangi so'z hosil qilishning muhim elementlari sanaladi. So'z yasalihi leksikologiya bilan ham aloqadordir. Til lug'at tarkibining yangi yasalgan so'zlar hisobiga boyib borishi, so'z ma'nosining o'zgarishi, uni boshqa ma'noda ishlatish yo'li bilan yangi so'z hosil qilish – bular so'z yasalihi leksikologiya bilan aloqadorligini ko'rsatadi. So'z yasalihi tufayli nominatsiya jarayoni ta'minlanadi. "Til va nutqdagi har qanday jarayon uning kommunikativ vazifasi aslida biror narsa, hodisa, xabar, voqeani nomlash va ushbu nom orqali o'zgalarga yetkazishdir. Shu sababli ushbu nuammo bilan onomosiologiya va nominatsiya sohalari shug'ullanadi".²³ Bu jarayon orqali insonning tashqi olam narsa-hodisalariga munosabati in'ikos etiladi. Inson ongining tashqi olam narsa-hodisalari va ularning munosabatlarining in'ikos etishi orqali tilda yangi lug'aviy birliklar vujudga keladi. Ularning (hosil bo'lgan yangi lug'aviy birliklarning) muayan lug'aviy-grammatik guruhlariga (so'z turkumlariga) taalluqligi tufayli so'z yasalihi grammatika bilan munosabati paydo bo'ladi. Lekin shu bilan bir qatorda, so'z yasalihi tilshunoslikdagi bu sohalarning barchasidan farq qiladi. Bu farq so'z yasalihi til qurilishidagi o'ziga xos alohida tizim ekanligi bilan belgilanadi.

So'z yasalihi bo'yicha mukammal tadqiqotlar yaratgan olimlardan biri A.G'ulomov bo'lib, olimning ishlarida so'z yasalihi barcha asosiy tushunchalari fan va tajribadagi eng yaxshi yutuqlar, shaxsiy kuzatishlari asosida o'zining chuqur ilmiy talqinini topgan. A.G'ulomov 1955-yilda so'z yasalihi nisbatan uning alohida soha ekanligi aytilgan bo'lsa-da, "O'zbek tilshunosligida, o'zbek olimining "So'z yasalihi o'z ob'ekti bor" degan fikri rus tilshunosligida to'la tan olinib bo'linganidan so'ngina, bu gapda jon borga o'xshaydi, bu yerda

²²Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992. –Б.198

²³Ҳасанова Д. Сўз ясаиши номинатсия назариясининг объекти сифатида.//Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари.(Республика илмий -назарий анжумани материаллари) № 5 -Тошкент.2011. –Б. 150

bir gap bor qabilida o'zbek tilshunoslarini "sergaklantirdi". Afsuski, bu "sergaklanish" ham 1975-yilga kelib, o'zbek tili grammatikasi nomli ilmiy grammatikaning vujudga kelishi, unda professor A.G'ulomovning "so'z yasalishi"ni tilshunoslikning, o'zbek tili tizimning alohida sohasi sifatida amalda qayta asoslab berishi natijasi o'laroq, 80-yillarning oxiriga kelib yuz berdi." So'z yasalishining tahlilida bu ikki hodisani farqlash lozim."Tildagi turli tabiiy ob'ektlarni ifoda etuvchi nomlar yaratilish davri, usuli, ma'no va vazifasiga ko'ra farqlanadi. Bu so'zlar paytda turli nominativ kategoriyani tashkil qiladi.

Masalan, o'zbek tilidagi qo'l, qorin, ish so'zlari qadimiy nomlardir. Ammo ulardan keyinchalik yasalgan hosilalar qo'lla, qo'ldosh, qorindosh, ishla, ishchan, ishsevar so'zlari turli davrlarda yasalgan leksemalardir va ular o'zbek tilidagi avvaldan mavjud so'zlardan hosil qilingan"²⁴So'z yasalishi hozirgi (sinxron) aspektga tayanadi. Bunda til taraqqiyotining ma'lum bir davri ko'zda tutiladi. Masalan, hozirgi zamon o'zbek tili. Bunda yasama so'zning qismlari o'rtasidagi munosabat jonli bo'ladi, ya'ni so'zning ma'nosini qismlarning ma'no munosabati bilan asoslash mumkin bo'ladi.

Masalan, o'r-im, terim,temir-chi, doira-chi, bilim-li, aql-li, randa-la, egov-la va boshqalar.Tarixiy (diaxron) yasalishda esa yasama so'zning ma'nosi va shu ma'noning ifodalanish usulini qismlarning ma'no munosabatlari orqali asoslab bo'lmaydi. Bu ma'no maxsus tekshirishlar orqali aniqlanadi. Masalan, o't-loq, tosh-loq, qum-loq, qish-loq, ov-loq so'zlari ko'rinishidan o'xshash. Bularning hammasi aslida o'rin ma'nosini ifodalovchi -loq qo'shimchasi orqali yasalgan. Ammo dastlabki uch so'z yasama sanalib, morfemalarga ajraladi (o't-loq - o'tli, o't ko'p joy, tosh-loq - toshli, tosh ko'p joy, qum-loq - qumli, qum ko'p joy). Keyingi ikkitasi (qishloq, ovloq) bunday qismlarga ajralmaydi, chunki bularda qismlarning semantik munosabati sezilmaydigan bo'lib qolgan. Ya'ni qishloq so'zi fasl bildiruvchi qish so'zi bilan bog'lanmaydi (qish-la-q «qishda yashaydigan joy»), ovloq so'zi endi «ov joyi, ov qilinadigan joy» ma'nosida emas, balki ma'nosi o'zgarib «xilvat joy» degan ma'noni bildiradi.Hozirgi (sinxron) so'z yasalishida kamida ikkita yasovchi komponent (qism) qatnashadi. Bulardan hech bo'lmaganda bittasi mustaqil ma'noli (narsa, belgi, harakat va sh.k.) bo'ladi.

Yasama so'zni yuzaga keltiruvchi bu qismlar yasovchilar, ularning o'zaro munosabatidan (birikishidan) hosil bo'lgan birlik yasalma (yasama so'z) deyiladi.Yasalmaning yuzaga kelishida qatnashuvchi mustaqil ma'noli qism yasovchi asos (yasalmaning asosi) hisoblanadi. Bunday asos sodda yasama so'zda bitta, qo'shma so'zda birdan ortiq bo'ladi: ishchi: ish – yasovchi asos, -chi- yasovchi

²⁴Хасанова Д. Сўз ясаиши номинация назариясининг объекти сифатида.//Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари.(Республика илмий -назарий анжумани материаллари) № 5 -Тошкент.2011. –Б. 150

qo'shimcha, ishchi – yasalma; toshko'mir: yasovchi asos – tosh va ko'mir, toshko'mir – yasalma.

So'z shakl tarkibida leksik ma'no anglatuvchi qism bilan grammatik ma'no bildiruvchi qism farqlanadi. So'z shaklning leksik ma'no bildiruvchi qismi leksema deyiladi. Leksema grammatik ma'no ifodalovchi qism, shuningdek, so'z yasovchi qo'shilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. "So'z yasaliş hodisasi asosan mustaqil turkumlari uchun xos. Ot, sifat, fe'l va ravish turkumlarining tarkibi doim yangi yasalmalar bilan boyib turadi."²⁵Bunday qarashni Q.Sapayevning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmasida ham uchratish mumkin. Keyingi yillarda e'lon qilingan ishlarda, xususan, A.Hojiyevning "O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalişining nazariy masalalari" monografiyasida so'z yasaliş haqida yangicha qarashlar ilgari surilgan. Tilshunos olim so'z yasalişini o'zbek tilida o'rganiliş haqida so'z yuritar ekan, tilning har bir sistemasining tadqiqi shu sistemani shakllantiruvchi til birligini belgilashdan boshlanishini, biroq o'zbek tili so'z yasalişini sistemasini tadqiq etishda ana shu asosiy, muhim va ma'lum faktga e'tibor berilmaganligini, ya'ni o'zbek tili so'z yasaliş tizimi va uning til birligi – shakllantiruvchisi bormi, degan masala o'rtaga qo'yilganligi va bu haqda aniq bir fikr bildirilganligi yo'qligini ta'kidlaydi.²⁶A.Hojiyev ushbu monografiyasida o'zbek tilshunosligida so'z yasalişini, so'z yasaliş tarkibi, so'z yasaliş imkoniyati haqidagi mavjud qarashlarni tahlil qiladi. "So'z yasalişini asosining mohiyatini belgilashda quyidagi ikki narsaga asoslanish kerak bo'ladi: 1) yasama so'z umuman so'z (leksema)dan emas, balki uningmuyayan ma'nosi asosida yasaladi.

Masalan, harakatchan so'zi harakat so'zining ma'nosi asosida -chan so'z yasovchi morfemasi yordamida yasaladi. Ana shu ma'no harakatchan yasama so'zi ma'nosining yuzaga kelishi uchun asos ma'no hisoblanadi. Bu yasama so'z tarkibida harakatchan so'zi va uning ma'nosi shunday xususiyatga (mohiyatga) ega ekan, bu so'zning ma'nosi ham mustaqil ma'no hisoblanmaydi. Bu esa harakatchan so'zi tarkibida "harakat"ni mustaqil birlik, ya'ni so'z (ot) hisoblashga yo'l qo'ymaydi. Demak, harakatchan yasama so'zi tarkibidagi "harakat"ni so'z yasash asosi deyish – shunday termin bilan yuritish, birinchidan, uning mustaqil birlik emasligini qayd etsa, ikkinchidan so'z yasaliş asosi termini yasama so'zning tarkibiy qismi ekanini aniq qayd etadi. Bu bilan harakatchan yasama so'zining mohiyatini to'g'ri anglash, talqin etish osonlashadi. So'z yasaliş asosi yasama so'zda yasama so'z, hattoki qo'shma so'zdan iborat bo'lishi mumkin. Lekin ular ham yasama so'z tarkibida mustaqil birlik

²⁵ Гурсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.207.

²⁶Хожиёв А.Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясаишининг назарий масалалари. -Тошкент: Фан, 2010. –Б.141-142.

hisoblanmaydi, chunki har qanday yasama so'zda so'z yasash asosi bitta bo'ladi."27Tilshunos olim, so'z yasaliş asosi haqidagi qarashlarini yakunlar ekan, so'zning lug'aviy ma'noli birlik sifatida so'z yasalişida, lug'aviy sistemaning til birligini hosil qilishda qatnashishi hamda so'z yasaliş sistemasi ning til birligi hisoblanuvchi yasama so'zning. Nazariy ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, so'z yasaliş haqida ba'zi jihatlarni e'tiborga olmaganda, qarshlar mushtarak. So'z yasaliş hodisasi tilning lug'at boyligini oshiruvchi asosiy hodisalardan biridir. Tilda mavjud so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida so'z yasaliş, so'zning ma'nosida kengayish yoki ko'chishning yuzaga kelishi lug'at boyligining oshishida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Тўраходжаева А., Ҳасанова Д. Ўзлашма луғавий бирликлар -янги сўз яшаш манбаи./Ўзбек тили ва уни ўқитиш масалалари. Республика илмий-назарий конференцияси. -Тошкент: 2017. -Б.119
2. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992
3. Ҳасанова Д. Сўз ясаиши номинация назариясининг объекти сифатида./Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари.(Республика илмий -назарий анжумани материаллари) № 5 -Тошкент.2011. -Б. 150-154
4. Ҳожиёв А.Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясаишининг назарий масалалари. -Тошкент: Фан, 20
- 5.Gadoeva M.I. Significant features of somatic vocabulary // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. - Namangan, 2021. -№12. -В. 411-416. (10.00.00; №26)
- 6.Gadoeva M.I. Expression of somatizms in curses // Euroasian journal of research, development and innovation. Genius journals publishing group. Belgium, 2021. - P.30-33.
- 7.Yuldashev B. Problems of onomastics. SamSU, 2011, - p. 37
8. Gadoeva M.I. Features of connotative meaning of somatizms as part of phraseological units // International Journal on Integrated Education.Volume 3, Issue III, March, 2020. - P.73-78. (Impact Factor: SJIF 2020 - 5,712)
9. Gadoeva M.I. Lexico-semantic fields of "eye" in English and Uzbek languages // Academicia. An International multidisciplinary Research Journal. ISSN (online): 2249-7137. Vol. 11, Issue 10, October. <https://saarj.com> DOI

²⁷Ҳожиёв А.Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясаишининг назарий масалалари. -Тошкент: Фан, 2010.-Б.146-147

NUMBER 10.5958/2249-7137.2021.02176.5. -India, 2021. – P.872-879. (Impact Factor: SJIF 2021 - 7.492)

10.Gadoeva M.I. Semantics of somatism in blessings of English and Uzbek cultures // Web of Scientist: International Scientific Research Journal Open Access, Peer reviewed Journal. ISSN: 2776-0979. Volume 2, Issue 11, November, 2021. – P. 269-276. (Impact Factor: SJIF 2021 – 5,599).

11.Gadoeva M.I. Expression of the somatizms "mouth", "ear", "nose", "tongue" in the system of different languages // Novateur Publications JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN No: 2581 – 4230. Volume 7, Issue 11, Nov. -2021. -P.125-130. (JIF -7.223).

12.Gadoeva M.I. Lexico-semantic Classification of Somatisms in Phraseological Funds of English and Uzbek Languages // Eurasian Research Bulletin. Open Access, peer research journal. -Belgium, 2022. -V.4. -P.140-145. www.geniusjournals.org. (JIF – 7.995).

13.Gadoeva M.I. Significant features of somatic vocabulary // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. – Namangan, 2021. -№12. -B. 411-416. (10.00.00; №26)

14.Gadoeva M.I. Expression of somatizms in curses // Euroasian journal of research, development and innovation. Genius journals publishing group. Belgium, 2021. – P.30-33.

15.Gadoeva M.I. The Expression of Somatizms in English and Uzbek Proverbs // European Conference on Natural Research. <http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/issue/view/Stockholm>. -Sweden, 2021. – P. 36-41.

16.Gadoeva M.I. Polysemy of Somatizms in English and Uzbek Languages // International Conference on Multidisciplinary Research and Innovative Technology's. November 11th, <https://academiascience.org/>. -India. 2021, – P. 87-90.

17.Gadoeva M.I. Background analysis of somatic phraseological units in Uzbek // Proceeding of International Conference on Research Innovation In Multidisciplinary Sciences, Hosted From New York. www.econferenceglobe.com. – USA. 2021. -P. 297-300.

18.Gadoeva M.I. Interpretation of “head-bosh”, “foot-oyoq” and “heart-yurak (qalb)” in English and Uzbek languages // Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: a collection scientific works of the International scientific conference (11 November) ISSUE 5. – Copenhagen. 2021. – P.61-65.

19.Firuz N. English Phraseological Units With Somatic Components //Central Asian Journal Of Literature, Philosophy And Culture. – 2020. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.

20.R.R.Kasimova. Comparative Study of the Ceremonies Connected with the Cult Momo and Ethnographisms // IMPACT: International Journal of Research in Humanities, Arts and Literature // - Ohio, US. Volume-3, Issue-7, Jul 2015. - P. 29 - 34 (№17 Open Academic Journals Index. JCC Impact Factor (2015): 1.7843).